



## ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KREATIV FIKRLASHGA O'RGATISHNING NAZARIY VA AMALIY OMILLARI

**Rahimova Baxtinur Qahramon qizi**

*Xorazm viloyati Xiva tumanidagi 29-  
maktab ona tili va adabiyot o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim tizimida ona tilini o'qitishdan ko'zlanayotgan bosh maqsad kreativ fikrlashga o'rgatish, o'quvchilar ongida boshlang'ich sinfdanoq ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga o'rgatishdan iborat ekanligi. Shuningdek, bu ishlarni amalga oshirish maqsadida yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechilib, kreativ tafakkur tarzini shakllantirishni dars davomida qanday o'rgatilishi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** kreativ, fikr, nutq, nazariya, grammatika, terma, moddiy.

**Аннотация.** В данной статье основной целью обучения родному языку в системе общего среднего образования является обучение творческому мышлению создание духовно-образовательной революции в сознании учащихся с первого класса. Также для этого в новых программах и учебниках рассказывается о том. Как избежать запоминания грамматических правил и как научить формированию творческого образа мышления во время урока.

**Ключевые слова:** креатив, предложения, доклад, теория, грамматика, сборник, материально.

**Annotation.** In this article, the main goal of teaching the mother tongue in the general secondary education system is to teach creative thinking, to create a spiritual and educational revolution in the minds of students from the first grade. Also, in order to do this, the new programs and textbooks talk about how to avoid memorizing grammar rules and how to teach the formation of creative way of thinking during the lesson.

**Key words:** creative, opinion, speech, theory, grammar, thermal, material.

### KIRISH

Milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishni, shuningdek, ta'lim tizimini tubdan isloh qilishni, ta'lim berish usulini o'zgartirishni taqozo qilmoqda. Zero mustaqil fikr-mushohada yuritish, kreativlikni shakllantirish shubhasiz maktabda ona tilining zimmasiga tushadi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishdan ko'zlanayotgan bosh maqsad kreativ fikrlashga o'rgatish, o'quvchilar ongida boshlang'ich sinfdanoq ma'naviy-ma'rifiy inqilob hosil qilishga o'rgatishdan iborat



ekan ana shu maqsadda yangi dastur va darsliklarda grammatik qoidalarni yodlatishdan voz kechilib, kreativ tafakkur tarzini shakllantirish, dars va mashg'ulotlarni o'quvchilarning nutqiy malakasini oshirishga yordam beradi. Til o'qitishda til va nutq hodisalarining farqiga yetmaslik ko'pgina chalakashliklarni keltirib chiqarmoqda. Til va nutq tushunchalarini bir-biridan ilmiy asosda farqlash uni o'qitish uchun katta ahamiyat kasb etadi. Asosiy maqsad tilning grammatik qurilishi asosida nutq faoliyatini egallash bo'lganligi sababli, mashg'ulot materiallarini tanlash, darslarni tashkil etish ishlari o'quvchilarning nutqiy faoliyati shakllantirish va rivojlantirishga qaratilishi lozim. Shuning uchun til ma'ruza orqali emas, balki nutq ko'rinishlarini tahlil qilish, so'z birikmasi va gap modellarini o'zlashtirish, esda saqlash orqali o'rganiladi.

Ma'lumki, ta'limda jumladan «Ona tili» o'quv fanini o'qitishda «grammatika-grammatika uchun» shioriga amal qilib kelindi. Bu prinsip talabiga ko'ra dars jarayonida ko'proq grammatik qonun-qoidalarni yodlashga e'tibor berilgan. Ta'limda kutiladigan bosh maqsad o'quvchilarning tafakkurini o'stirish mustaqillik va kreativ faoliyatga undash ikkinchi darajali tadbir hisoblangan. Ikkinchidan, istiqlol ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga milliylik istiqlol g'oyalarini singdirish o'zlikni anglashni mutassil singdira borish talablarini qo'ydi. Ayni maqsadga erishish muhim vazifani bajarish uchun, avvalo, ona tilidan ta'lim mazmunini yangilash, bu fandan o'quvchilarga bilim berish usullarini o'zgartirish ta'lim mazmunidan eng muhim zaruriyatga aylandi.

Ona tilidan ta'lim mazmuni va tadrus usuli sifatida ona tili o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirish, ona tili o'qitish usullarini yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor berildi. Prof. A.G'ulomov ona tili o'qitishning amaliy yo'nalishini kuchaytirish uchun til hodisalari, nutq imkoniyatlarini kengaytiruvchi vositalar sifatida o'rganilmog'i lozimligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, nutq imkoniyatlari bolalarning so'z boyligini o'stirish, gap ustida ishlash, matn ustida ishlash, ona tili mashg'ulotlarini boshqa fanlar bilan bog'lab o'rganishi orqali amalga oshiriladi. Bular esa ona tili o'qitishning amaliy yo'nalishini ko'rsatadi [6.3-6b].

Shubhasiz, bu muammoning kun tartibiga qo'yilishining ob'ektiv asosi 90-yillargacha til o'rgatishda grammatik qonun qoidalarning o'rgatilishiga (hatto yodlashga) ko'proq e'tibor berilganligidadir.

Ikkinchidan, o'quvchilarga faqat darslikda berilgan mashqlarning talabini bajarish, ko'chirtirish, ayrim harflar, so'zlar qo'ydirish u yoki bu grammatik hodisalarni anqlatish tadbirlari bilan kifoyalanib kelganligidadir [2. 9-b].



Bu tajriba hozirgi kun zamonaviy ta'limi mezoniga solinsa, tom ma'noda o'quvchi nutqi va tafakkurining o'sishi, dars jarayonidagi mustaqillik ijodkorlik qobiliyatlarning rivojlanishi va imkoniyatlarini bir qolipga solib qo'yadi. Yoshlarning ma'naviy kamolotida odob ilmining, badiiy adabiyotning mumtoz na'munalari bo'lishiga va matn ustida ishlashga yetarli ahamiyat berilmadi. Til o'rgatish badiiy adabiyot ustida emas ko'proq terma gaplar asosida olib borildi. Ayni ma'noda, biz ayrim tadqiqotlarning tubandagi xulosasi haqiqat ekanligini alohida ta'kidlaymiz: maktab darsliklaridagi mashqlarning 80% dan ortig'i terma gaplardan iborat [6.25-b].

Ana shunday ob'ektiv sabablarga ko'ra ona tili ta'limining bosh maqsadi, vazifalarini hal qilish uchun ona tilida ta'lim mazmunini yangilash, ta'lim usulining amaliy yo'nalishini kuchaytirish dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo'yildi. «Ona tili ta'limi konsepsiyasi» ning «Ona tilidan ta'lim usuli» deb nomlangan bo'limida ham til o'rgatish mashg'ulotlarida matn ustida ishlash grammatik vazifasini farqlatishining asosiy omili ekanligi e'tirof qilingan [2.9-b].

Darhaqiqat, o'quvchilar o'rganilayotgan til hodisalarini badiiy matndan ajratsa, so'z ma'nolari ustida ishlasa, ajratgan til faktlarini og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llay bilsa, shu o'quvchining matn tahlil qilish malakasi orta borsagina ona tili mashg'ulotlari bosh maqsadiga erishgan hisoblanadi.

Ona tili ta'limi moddiy manfaat keltirmaydi degan xulosaga kelish noo'rindir. Chunki ta'lim, jumladan, ona tili ta'limi natijasida uni egallovchi o'quvchi ma'lum darajada ko'nikmalar hosil qiladi va bu ko'nikmalarning davr talabiga mosligi darajasi bevosita iqtisodiy ko'rsatkichlar-moddiy manfaat ko'rsatkichlari bilan o'lchanadi. Ona tili ta'lmining moddiy ko'rsatkichlari bolalarning imlo savodxonligi, so'z boyligi va undan foydalanish mahorati, mustaqil kreativ fikrlay olishi, fikr mahsulini maqsadga muvofiq ravishda og'zaki va yozma shakllarda bayon qila olishi kabi niyatlardan nutqda foydalanish, shubhasiz, moddiy ko'rsatkichdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili ta'limidan ko'zlanadigan bosh maqsadlar o'quvchining kreativ fikrlash malakalari ustida ishlash, nutqiy ko'nikmalarini tarkib toptirish bilan bog'liq bo'lsa bu omillar avvalambor, maktabda ona tilini o'qitishning samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan muammolarga borib taqaladi, shuning uchun ham asosiy maqsadni ilk qadamdayoq aytish, o'quvchining fikrlashiga, kreativ izlanishga bosqichma-bosqich imkon berish maqsadga muvofiqdir.

### **XULOSA**

Modomiki, ona tilidan yangi pedagogik texnologiyaning mohiyati kreativ tafakkur sohibini tarbiyalashga qaratilgan ekan, nafaqat ta'lim mazmuni, balki



o'qish usulini to'g'ri tanlash, ona tili o'qituvchisining ham zimmasiga mas'uliyatli vazifani yuklaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbek maktablarida ona tili konsepsiyasi «Til va adabiyot ta'limi» jurnal 1994y. 1-2 qo'shma soni.
2. Бўронов.М. Таълим жараёнига замона талаблари. Дарс кузатиш масъулиятли иш. Нукус «Билим» 1995 йил, 9-бет.
3. «O'zbek tilining izohli lug'ati» 2 jildli (Z.Marufov tahriri ostida) Moskva «Rus tili» nashriyoti.
4. H.Ne'matov, G'ulomov A, Ziyodov T «So'z boyligini oshirish» RTM, 1997.
5. G'ulomov A, M.Abdurahimova, M.Qodirov «Ona tili» 5-sinflar uchun darslik T. «O'qituvchi» 2001.
6. G'ulomov A, «Ona tili o'qitish prinsplari va metodikasi» T. «O'qituvchi» 1992.
7. H.Ne'matov, G'ulomov A. «Ona tilidan ta'lim mazmuni» T. «O'qituvchi» 1995.
8. G'ulomov A. Qobilova B. «Nutq o'stirish madaniyati» T. «O'qituvchi» 1995 y.
9. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim dasturi «Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'limi standarti va o'quv dasturi», Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasining 1-maxsus soni T. «Sharq» 1999 y. 55-104-bet.
10. Ne'matov H. Rasulov R. «O'zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari» T. «O'qituvchi» 1998 y.
11. Mahmudov N. Nurmonov A. «O'zbek tilining nazariy grammatikasi» Toshkent 1996 y.